



# **Oltinsoy tumanida məktəb, bog'cha va tibbiyot maskanları faoliyati bilan tanışıldı**






Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov Oltinsoy tumaniga tashrif buyurib, tumandagi ta'lif va sog'liqni saqlash muassasalari faoliyati bilan tanishdi. Dastlab, Termiz davlat pedagogika institutiga biriktirilgan 45-sonli məktəbda ta'lif sifati va o'qituvchilarning sifat tarkibini yaxshilash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti ko'rib chiqildi.

Taqdimotda ta'lif jarayonlarini takomillashtirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularning toifa tarkibini kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. Bu ishlar məktəbdagi ta'lif sifatini oshirish va o'quvchilarga sifatli bilim berish imkoniyatlarını kengaytirishga qaratilganligi qayd etildi.













Shundan so'ng, viloyat rahbari 8-, 27- va 56-sonli umumta'lim maktablarini ham ko'zdan kechirdi. Ushbu maktablarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlikning qanchalik darajada amalga oshirilgani, sinfxonalarning isitish tizimlari, material-texnika bazasining holati hamda o'quv jarayonlarida foydalanilayotgan uskunalar va metodikalar bilan tanishildi. Shuningdek, 13-sonli ayrim fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan maktabda ham o'quv jarayonlari bilan tanishildi.

Xususan, mazkur maktablarga biriktirilgan Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ishlar, ya'ni ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarining kasbiy malakasini rivojlantirish va toifalash jarayonlarini takomillashtirish borasidagi taqdimotlar ham muhokama qilindi. Bunda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va pedagogik jamoaning bilim va ko'nikmalarini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.











Viloyat rahbari tumanga tashrifi davomida 29-sonli davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida ham bo'lib, ovqatlar tayyorlash sharoitlari bilan qiziqdi. Ratsion asosida oziq-ovqat va go'sht mahsulotlarining berilishini ta'minlash, oshxonada sanitariya-gigiena talablariga qat'iy rioya qilish lozimligi ta'kidlandi. Bog'chada bu borada yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatib o'tildi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha mas'ullarga vazifalar topshirildi.

Keyingi manzil "Yangi qurilish" mahallasidagi "Bobur" oilaviy shifokorlik punkti bo'ldi. Bu yerda aholi uchun tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi o'rganilib, shifokorlik punktida olib borilayotgan ishlarga baho berildi. Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar, jumladan, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yuzasidan bajarilayotgan ishlar taqdimot qilindi.







Aholi salomatligini yaxshilash va sifatli tibbiy xizmatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni kuchaytirish kerakligi ta'kidlanib, mutasaddilarga tumanda ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga puxta tayyorlash, sog'liqni saqlash va ta'lif sohalarini rivojlantirish yuzasidan vazifalar belgilab berildi.